

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Farg'ona shahrining geokimyoviy landshaftlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari	117
Sh.Q.Yuldasheva	
Aqliy mehnat paytida qondagi qand miqdorini turli yoshdagi odamlarda o'zgarishi.....	122
Z.A.Jabbarov, G.R.Atoyeva, M.H.Husniddinova	
Tuproqlarning kimyoviy ifloslanish natijasida biologik xossalaringning o'zgarishi	127
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Cynara scolymus L. O'simligidan ajratib olingen endofit zamburug'lar ekstraktlarining saraton hujayralariga qarshi biologik faoliylklari	133
S.Israiljanov, J.T.Mamasaidov, H.O.Adulboqiyeva	
Og'ir metallarning o'simlik, hayvonlar va odam organizmiga fiziologik ta'sirini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili	138
M.K.Julihev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov	
Markaziy Osiyoda tuproq eroziysi bo'yicha 1993-2022-yillar oraliq'ida Scopus ma'lumotlar bazasida nashr etilgan maqolalar tahlili	143
X.X.Dolimov, I.J.Jalolov, A.A.Ibragimov	
Analysis of macro and micro elements and water-soluble vitamins of the plant Cynara scolymus L.....	149
S.O.Madumarova, M.Sh.Raximov, M.J.Madumarov, A.A.Tokoev	
Farg'ona vodiysi Cladocera (<i>Crustacea: Branchiopoda</i>) lari ro'yxati.....	157
Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, O.N.Imomov, J.J.Abdukarimov	
Tuproq sifati indikatorlari va ularni qo'llanilishi.....	166
M.A.Tog'ayeva, Sh.A.Samatova	
Qashqadaryo viloyati aholisi iste'mol qilayotgan yumshoq bug'doy navlari tarkibidagi temir elementi miqdori.....	176
M.A.Davidov	
Tabiiy sharoitda <i>Mogoltavia sewerzowii</i> (Regel) korovin antekologik xususiyatlari	181
X.N.Raximov, G.T.Djalilova	
Qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariiga ta'siri	186
M.R.Qoriyev	
Global iqlim isishi sharoitida mevali daraxtlar vegetatsiyasidagi o'zgarishlar	191
O.N.Nasirov	
Mustaqillikni dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	196
R.A.Ikromov	
Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda milliy qadriyatlarning roli	200
S.Nishonova	
Maqollar paremiologik birlik sifatida	205
Sh.A.Tadjibaeva	
Rahbar ayol imidji tushunchasi va uni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	208
S.S.Jabborova	
Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy salohiyatdan foydalananish istiqbollari.....	213
E.U.Gulzoda, A.Z.Rashidov	
Ijodiy faoliyat uchun, o'quv mashg'ulotlarining o'ziga xos uslubiy chizmasiga egaligi, ijodkorlarning eksperimental ishiga katalizator bo'lib xizmat qilishi omillari.....	219
K.M.Nilufar	
Turli tarixiy kontekstlarda intellektual madaniyat masalasi.....	222
T.Quyliyev	
Global ekologik muammolar va ularning oldini olishda xalqaro institutlarning roli	227
B.M.Qandov	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda sog'lom mafkuralarning roli	233
Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishiga bilingvismning ta'siri	238
F.F.Muydinov	
Tibbiy ta'linda media ta'limga asosida o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning ayrim jihatlari.....	242
Z.S.Paziljanova	



УО'К: 616-053.2:371.3:004.738.5

TIBBIY TA'LIMDA MEDIATA'LIM ASOSIDA O'QUV MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING AYRIM JIHATLARI

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

SOME ASPECTS OF EFFECTIVE ORGANISING OF TRAINING BASED ON MEDIA STUDY IN MEDICAL EDUCATION

Muydinov Firuz Farhodjonovich 

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyat instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyat axborot texnologiyalari fanini o'qitish orqali talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan va tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье освещаются и анализируются вопросы развития медиакомпетентности студентов посредством преподавания предмета медицинские информационные технологии.

Abstract

This article highlights and analyzes the issues of developing students' media competence through teaching the subject of medical information technology.

Kalit so'zlar: informatika, axborot, internet, media, didaktik imkoniyat, metodika, tibbiy amaliyot, tashkiliy komponent.

Ключевые слова: информатика, информация, интернет, СМИ, дидактическая возможность, методика, медицинская практика, организационная составляющая.

Key words: computer science, information, Internet, mass media, didactic opportunity, methodology, medical practice, organizational component.

KIRISH

Insoniyatning bugungi avlodi bugun dunyoda globallashuv jarayonlari tig'izlashgan, axborot almashinuvi jadallahgan, uning mazmuni tinimsiz yangilanib va ko'lami jadal kengayib borayotgan davrda yashamoqda. Aksariyat olimlar zamonaviy globalashuv jarayonini axborot texnologiyalarining keng tarqalishi bilan bog'lashmoqda. "Axborot texnologiyalarining rivojlanishi axborotlashgan jamiyat nomini olgan jamiyatning shakllanishiga turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda bunyodkor g'oyalar bilan birga, insoniyat hayotini buzadigan turli vayronkor g'oyalar ham tarqalmoqda" Shubhasiz, biz media ta'sir vositasida tevarak atrofimizni va ong shuurimizni o'rgimchak to'ri misol o'rabi olgan, tobora torayib borayotgan dunyoda yashayapmiz.

Hozirgi global dunyoda yagona media makoni shakllandi. Shu makondan munosib o'rinn egallash uchun bo'ladigan kurash O'zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Chunki zamonaviy dunyoda xorijiy tilni o'rnatuvchi, chet davlatlar bilan muloqot qiluvchilarning ahamiyati ortib bormoqda. "Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani bejiz emas" [1:57]. Zero, odamlarda, "axborotni eng avval bera olgan, doimo haq bo'ladi degan qarash mavjud bo'ladi. Bu sohaga nisbatan bunday fikr bildirilishi aslo bejiz emas. Zero, dunyoga tarqatilayotgan 80% axborotni sanoqli axborotagentliklari yetkazib bermoqda" [2:173]. Bu ularning hohlagan axborotni o'z manfaatlardidan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi hozirda juda murakkablashib ketdi. Unda ta'sir kuchiga ega bo'lishni eng maqbul yo'li sifatida, mablag' qancha ketishidan qat'iy nazар yirik axborot tarqatuvchilik mavqeini egallash ekanligi hozirda sir bo'lmay goldi. Jahonda informatsion urush ketayotganini hatto oddiy insonlar ham sezishlari mumkin. Misol

ILMIY AXBOROT

uchun biron mamlakat hududida ma'lum turmush tarzini, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, san`at asarlari, kinofilmilar, axborotlar va hakozolar tarqatilmoqda. Bunday media ta'sir vositalari jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikrni shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Bugungi kunda tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining mediadan, axborot tarqatuvchi tizimlardan ITni o'rganishda mutaxassisligiga asoslangan internet tarmoqlari, saytlar va telekanalarning faoliyatini kuzatish, ulardan o'rganishda mediasavodxonlikni zarurati, mediamadaniyatni ijtimoiy ahamiyati dolzarblik kasb etmoqda.

Axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot, radio, televideniye, kino kabi hodisalarni o'zida birlashtiruvchi media vositalari jamiyat hayotiga va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayoniga ulkan ta'sir o'tkazish quvvatiga ega. Uning qanday katta kuchga ega ekanini ularga nisbatan «to'rtinchи hokimiyyat» atamasi qo'llanilishida ham ko'rish mumkin. Medianing ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbliги hamda tahliliylik darajasiga va mavjud muammolarning samarali yechimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq bo'ladi.

Medianing yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi ta'sir kuchi uning materiallari muayyan auditoriyaga mo'ljallangan bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki auditoriyaga mo'ljallangan materiallarni yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi, milliy, diniy mansublik kabi belgilarga ko'ra farqlash mumkin. Medianing qamrov darjasasi, boshqacha aytganda, mahalliy, umummilliyl, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi ham uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Media yoshlarni g'oyaviy tarbiyalashning muhim bo'g'inidir. Eng avvalo ular ijtimoiy hayotdagi muayyan voqeа, hodisa yoki muammo yuzasidan axborotni yetkazib berish orqali, uning jamiyat uchun ahamiyati, keng aholi qatlamlari uchun dolzarbligini ta'kidlaydi.

Ayni paytda, media muayyan habarni uzatish yoki biror bir g'oyaning mohiyatini ochib berish orqali uning o'zlashtirilishiga, kishilar ongida barqaror tasavvurlar, obrazlar, qadriyatlarning shakllanishiga ko'maklashadi. Sodda qilib aytganda, u ijtimoiy fikrga doimiy va izchil ta'sir o'tkazish, uni shakllantira olish imkoniyatiga egadir. Mafkuraviy tarbiya tizimida medianing o'rn haqida gap ketar ekan, uzatilayotgan axborotlarning obyektivligi masalasiga alohida e'tibor berish lozim.

Media maydonda bo'lg'usi shifokorlarni ITni o'rganish jarayonida ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval ularning ijtimoiy xulqida ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo'lismidir. Chunki agar psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan halos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi [3:134].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Media xurujlari vaziyatida bo'lg'usi xorijiy til o'qituvchisining o'z-o'zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish lozim:

Birinchidan, har bir bo'lg'usi shifokor mustaqil fikrga ega bo'lish muhim. Mustaqil fikrga ega bo'lgan talabagina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. M.Quronov ta'biri bilan aytganda, mustaqil fikrga mustaqil (erkin, ozod; tobe bo'Imagan, alohida) – ixtiyori o'zida bo'lgan; tobe, qaram bo'Imagan kabi ma'nolaridan kelib chiqib qarashimiz lozim. Bunda o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz, o'zicha fikr yuritish, yashash tushuniladi. Yoshlar shunga qodirmi? Uni shunga o'rgatyapmizmi?

Ikkinchidan, bo'lg'usi shifokorlarni turli yot va bemaza media xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda milliy g'ururni tarbiyalashimiz va bunda fanlararo hamkorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. "Yangi zamonning yang tushunchalari" tahliliga e'tibor qaratar ekan, M.Quronov milliy g'urur tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda sodda va tushunarli yoritib bergen: "Milliy g'urur – talabaning yoshiga mos ravishda o'z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma'naviyati, iqtisodiyotida qo'lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo'lishga, ularni

boyitishga intilishini o'z ichiga oladi". Milliy g'ururning ahamiyati ham ana shunda, bunday fazilatga ega talaba noto'g'ri g'oyalarga, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo'lmaydi.

Uchinchidan, milliy g'ururi bor insonda imyon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog'liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan "kompas" rolini o'ynaydi. "Internet shunday o'rmonki, unda kompassiz yurib bo'lmaydi". Garchi Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to'plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin.

Media rivoji hozirgi davrdagi yuksak salohiyatlari kadrularni tarbiyalashdagi g'oyaviy kurashga o'ziga xoslik bag'ishlamoqda. Bu jumladan, ma'lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan yetkazilishida yoki ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma'lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatda odamlarning ma'naviy idrokini susayishtirishga intilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga bu o'ziga xoslik jamiyat a'zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamini yashirishga, ularning muhokama obyektiga aylantirmslikka intilishda ham yaqqol ko'rindi [4:48].

Medianing mafkuraviy jarayonlar rivojiga o'ziga xos va kuchli ta'sir o'tkazayotganini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda internet ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo'g'ini hisoblanadi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida keng va chuqur fikrlovchi kadrular ega bo'lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan media faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi. Mediakompetentlik asosida talabalarni tarbiyalab voyaga yetkazish targ'iboti haqida gap ketar ekan, eng avvalo g'araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan tashqi g'oyaviy ta'sirlar, mamlakatimiz hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga xolis yondashuv bayrog'i ostida berilayotgan bir yoqlama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi obyektiv ma'lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy yetkazib berish masalasi dolzarb bo'lib turganini alohida qayd etish zarur. Shunday vaziyatda har xil shakl-u shamoyilda chiqayotgan bunday urinishlarga qarshi fuqarolarimiz hayotida sodir bo'layotgan ijobjiy o'zgarishlar haqida hikoya qiluvchi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Buning uchun bo'lg'usi shifokorlarni zamonaviy bilim olishlariga, dunyo madaniyati va ma'naviyatining sarchashmalaridan bahramand bo'lishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, "bugungi axborot xurujlari avj olgan davrda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi, ming yillar davomida yuksak qadriyatga aylangan, mehr-oqibat, ibo-hayo, kattaga hurmat-kichikka izzat kabi an'analarimizdan yoshlarni og'diruvchi ayrim noxush holatlar ham ko'zga tashlanmoqda" Texnikaviy, texnologik kommunikatsiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o'z iqtisodiy manfaatlari yo'lida foydalanmoqdalar. Afsuski, aksariyat hollarda yoshlarni bosqichma-bosqich milliy o'zligidan ayirish, milliy an'analarini va urfdotlariga zarba berib, tarixiy xotirasini qirqish, shu orqali millatlar ustidan hukmronlikka erishish tamoyili kuchaymoqda. B.Omonov ta'kidlaganidek: "Internet tarmog'inining jadal rivojlanishi oqibatida tezkor sur'atlarda kengaygan globallashuv va mintaqalararo integratsiya davlatlar qurilishida yangi davrni boshlab berdi. Aslida globallashuv modernizatsiyalashuv jarayonini tezlashtirdi, desak xato bo'lmaydi. Negaki, globallashuv – umumiyl, to'g'riroq'i, g'arbona umumiyl g'oya atrofida birlashishdir" [5:127-132].

Bugungi kunda axborotning aksariyat qismi internet orqali dunyoga tarqalmoqda. Darhaqiqat, internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri, o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini beruvchi katta informatsion magistral hisoblanadi Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda foydalanish mumkin. Bugungi kunda aksariyat yoshlar bo'sh vaqtinani internet-klublarda o'tkazib, u yerdan rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Bu esa bir tomondan yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkonitlarni yaratса, ikkinchi tomondan bu tizim orqali kirib kelayotgan milliy mafkuramizga yot bo'lgan g'oyalar ular ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda Bugun telefon orqali kompyuterga ullanib dunyoning xohlagan burchagidagi insonlar bilan muloqtda bo'lish va o'ziga kerakli axborotni olishi mumkin. Axborot inson hayotiga turli yo'nalishlar orqali ta'sir o'tkazadi. Axborot asrida "mavhumlashuv" yuz bermoqda Ya'ni axborot - qudratli vositaga aylanib butun dunyoni tashvishlantiradigan muammolarni kelib chiqishiga turtki bo'lmoqda

ILMIY AXBOROT

Axborot asrida internetdan axborot tarqatish va qabul qilish oddiy hol bo'lib qoldi. Internetda "kiberterrorizm" vujudga kelgan. Bu esa ayrim shaxslar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda agressiv maqsadda axborot xurujini uyuşdıradi. O'z navbatida bu globallashuv sharoitida turli axborot tizimlari va texnologiyalari orqali axborot xuruji va ommaviy madaniyat tarqalishina sabab bo'lmoida Internet orqali tarqalayotgan axborot xuruji ajdodlarimizdan meros bo'lgan milliy qadriyatimizga ham ta'sir ko'rsatadi. Milliyligimizni saqlab kelayotganimiz uchun, mustaqil davlat bo'lib dunyoga tanilayotganimiz sababli ayrim davlatlar global tarmoq orqali axborot xurujini uyuşdırishga harakat qiladi. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyovning fikriga e'tibor qaratish zarur: "Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar "ommaviy madaniyat" tahdidi faqat chetdan – G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o'zimizdan, o'z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo'q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba`zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo'shiq va raqslarni kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy".

Globallashuv sharoitida O'zbekiston o'zining maqbul yo'lini tanlab olgan, deya ta'kidlashar ekan B.Umarov va Sh.Jabborovlar, bu yo'l odamlarni fikrini boshqarishni emas, balki ularda yuksak ma'naviylik tamoyillarini uyg'otish kerakligiga e'tibor qaratadi va yosh avlodda mustaqil dunyoqarashni shakllantirishni asosiy vazifa, deb bilishiga urg'u beradilar Axborot maydonida nafaqat omon qolishni, balki yengib chiqishni asosiy sharti, erkin fikrlaydigan, ijtimoiy mas'ullikni to'g'ri tushunadigan shaxsni tarbiyalash, uning uchun farovon turmush sharoitlarini yaratishdir. Biz uni kompyuter virusiga o'xshatamiz. Bugun talabalarni axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalana olish kompetentligini rivojlantirishimiz shu bilan birga turli xil viruslardan yani noto'gi ma'lumotlardan foydalanishdan olib chiqishimiz zarur. Bu viruslar odamlar ongini zaharlab ularda shahvoniy nafbsni o'yg'otadi. O'z navbatida pornografik saytlarni yaratgan shaxslar antivirus sifatida fohishabozlikni targ'ib qiluvchi filmlarni sotuvga chiqaradi. AQShdagi xuddi shunday «antivirus»larni sur'atga olish bilan shug'ullanuvchilarning umumiyligini daromadi 97,3 milliard dollarni tashkil etadi G'arbiy Yevropadagi 10 ta davlatda pornografik mazmunga ega bo'lgan gazeta, jurnal va filmlar uchun 130 milliard yevro ajratiladi (Mazkur holatlar bugungi kunda ba`zi yoshlarning qiziqqonligi va internetda ko'p ishlashi ularning tarbiyasiga va ma'naviyatiga juda katta ta'sir etishini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi o'ta dolzab vazifa sifatida kun tartibiga quyilayotganligi, ayni shu axborot xurujlariga qarshi yetarli immunitetga ega bo'lgan, sog'lom fikrli insonlarni maydonga chiqarish, zamонавиy o'zbek jamiyatining asosiy funksiyasi ekanligi olimlarimiz tamonidan asoslab bermoqda Ma'rifatparvar Abrurauf Fitrat "Oila" risolasida axloq-odobda namunali avlodni tarbiyalash nafaqat bir millat yoki xalq uchun, ayni paytda butun insoniyat uchun g'oyatda muhim ekanligini zikr etib, "Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi" deb yozgan edi. Bunda asosiy e'tibor oiladagi sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit hamma zamondarda ham ma'naviyat qo'rg'oni bo'lib kelganligini, ayniqsa, hozirgi zamonda bu juda dolzab erkanligi anglashiladi. Oiladagi muhit sog'lom bo'lsa undan albatta mustaqil fikrlovchi, ertangi kun uchun qayg'uruvchi insonlar voyaga yetadi. Binobarin bugun har bir davlat halqining tinch-totuv yashashi yo'lida siyosat olib borar ekan, mamlakatimiz ham informatsion xavfsizlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. Alovida qayd qilish kerakki, yetarli bilim, malaka, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan, o'z tarixi, ajdodlarining kimligidan behabar, soddadil, ishonuvchan yoshlarning bugungi kunda buzg'unchi g'oyalalar tuzog'iga tushib qolayotganini alohida e'tirof etishimiz mumkin. Hozirda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar, milliy ong, shuningdek diniy qadriyatlarning hamda turmush tarzini izdan chiqayotganligiga ko'z yumib bo'lmaydi. Eng yomoni bunday harakatlar natijasida yoshlar vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularidan yiroqlashib loqayd va manqurtga aylanib borayotganini kuzatishimiz mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda yoshlarimiz qalbida va ongida milliy g'urur, milliy iftixon tuyg'ularini o'zida mujassam etgan, xalqimizning erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi maqsad va muddaolarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish yo'lida uyuşdırıdigan ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'usini

shakllantirish lozim. Shu bilan birga ta`lim jarayonida IT dan foydalanish kompetentligini oshirishda ularning zamonaviy tibbiyotning yondoshuvlariga xos tarzda shakllantirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Козирев А.А. Информационные технологии в экономике и управлении. Из.во: Михайлова, Санкт-Петербург, 2000, -С. 57.
2. (Пассов Е.И. Программа-концепция комм уникативного иноязычного образования. М. «Просвещение», 2000 г. - 173с.).
3. (Джалилова С.Х. Психологические особенности личностной профессионализации студентов педагогического вуза: Дис. ... канд. психол. наук. – Т., 1994. – 134с.).
4. (Усманова М.А. Социально-философский анализ проблемы информатизации современного общества: Автореф. дис. ... канд. философ. наук. – Т.: Университет, 1997. – 48 с).
5. Komilov N.B. Zamonaviy tibbiyot pedagogikasida tibbiyot tarixi fanini o'qitishning eng muhim jihatlari tahlili // Pedagogik mahorat, 2023. №8.– bb.127–132